JOURNALFLEDU.COM
Foreign Languages in Uzbekistan

Scientific Electronic Journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2026, vol. 12, No 5 (70), pp. 25–45.
https://journalfledu.com
ISSN: 2181-8215 (online)

LINGUISTIC MANIFESTATIONS OF NATIONAL AND CULTURAL CHARACTERISTICS IN THE ENGLISH PAREMIOLOGICAL WORLDVIEW

Gulhayo Abdug'affar qizi Abdug'affarova

Uzbekistan State World Languages University
PhD Student
Tashkent, Uzbekistan
agulxae@mail.ru
https://orcid.org/0009-0006-4398-6721
https://doi.org/10.36078/1794210244

(received: August 14, 2026; revised: October 01, 2026; accepted: October 20, 2026)

Abstract. This article examines the paremiological worldview reflected in English proverbs. Previous studies have primarily explored English proverbs in relation to individual concepts, such as gender, time, money, friendship and moral values, while the relationships between these concepts and the role of proverbs that contradict core values remain insufficiently explored. The study aims to identify the semantic, figurative and pragmatic features of English paremiological units and, on this basis, to describe the structure of the English paremiological worldview. The material comprises 56 proverbs selected from scholarly literature and the English proverbial repertoire and organised into 16 thematic groups. Conceptual-thematic, componential and contextual analyses were employed, and the figurative basis of the proverbs was examined using N. Norrick's classification of metaphorical proverbs. The article also considers the origins of English proverbs and their shared European heritage, arguing that a proverb's active use in a language is more significant in shaping this worldview than its origin. The results show that proverbs concerning personal responsibility, time, work, money, knowledge and caution account for half of the sample and constitute the core of the worldview represented in the material examined. Proverbs concerning gender, age and occupation form a distinct layer, while those relating to friendship, family, health and nature occupy the periphery. Proverbs that contradict core values are interpreted as a compensatory layer that balances the system. The findings have potential applications in linguocultural studies, translation studies and English language teaching.

Keywords: paremiology; linguistic worldview; proverb; linguoculturology; national mentality; concept; English language.

INGLIZ PAREMIOLOGIK OLAM MANZARASIDA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARNING TILDA NAMOYON BO‘LISHI

Gulhayo Abdug‘affar qizi Abdug‘affarova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Doktorant (PhD)
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada ingliz maqollarida aks etgan paremiologik olam manzarasi tahlil qilinadi. Ingliz maqollari asosan alohida konseptlar: gender, vaqt, pul, do‘stlik va axloqiy qadriyatlar doirasida o‘rganilgan bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ustuvor qadriyatlarga zid mazmundagi birliklarning tizimdagi o‘rni yetarlicha yoritilmagan. Tadqiqotning maqsadi ingliz paremiologik birliklarining semantik, obrazli va pragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda ular asosida paremiologik olam manzarasining tuzilishini ochib berishdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida ilmiy adabiyotlar va ingliz tilining paremiologik fondidan tanlab olingan 56 ta maqol 16 ta mavzuiy guruh doirasida o‘rganildi. Konseptual-mavzuiy, komponent va kontekstual tahlil metodlari qo‘llanilib, maqollarning obrazli asosi N. Norrikning metaforik maqollar tasnifi asosida tavsiflandi. Ingliz maqollarining kelib chiqishi va paremiologik fonddagi umumyevropa qatlamining o‘rni ham ko‘rib chiqildi. Paremiologik olam manzarasini belgilashda birlikning kelib chiqishidan ko‘ra uning tilda faol qo‘llanishi muhimroq ekani asoslandi. Natijalarga ko‘ra, tanlanmaning yarmini tashkil etuvchi shaxsiy mas’uliyat, vaqt, mehnat, pul, bilim va ehtiyotkorlikka oid maqollar tahlil qilingan paremiologik olam manzarasining yadrosi sifatida belgilandi. Gender, yosh va kasbga oid maqollar alohida qatlamga, do‘stlik, oila, sog‘liq va tabiatga oid maqollar esa periferiyaga kiritildi. Yadrodagi ustuvor qadriyatlarga zid mazmundagi birliklar tizimni muvozanatlashtiruvchi kompensator qatlam sifatida talqin qilindi. Tadqiqot natijalaridan lingvokulturologiya, tarjimashunoslik va ingliz tilini o‘qitishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: paremiologiya; olamning lisoniy manzarasi; maqol; lingvokulturologiya; milliy mentalitet; konsept; ingliz tili.

Kirish

Til nafaqat inson fikrini ifodalash quroli, balki xalqning necha asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimi mujassam bo‘lgan alohida bir olamdir. Har bir millat o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida atrofdagi voqelikni o‘ziga xos tarzda idrok etadi, uni baholaydi va bu baholash jarayoni til birliklarida, xususan, paremiologik fondda yorqin aks etadi. Maqol va matallar xalq donishmandligining eng ixcham, ayni paytda eng barqaror shakldagi ifodasi hisoblanadi, chunki ular avloddan avlodga o‘zgarmasdan yoki juda kam o‘zgarib yetib keladi va shu bois muayyan

xalqning mentaliteti haqida ishonchli ma’lumot beruvchi manba bo‘lib xizmat qiladi.

Maqollarni xalq dunyoqarashining ko‘zgusi sifatida o‘rganish an’anasi til va tafakkur munosabati haqidagi falsafiy qarashlarga, xususan, V. fon Gumboldtning har bir til xalqning dunyoni ko‘rish usulini o‘zida saqlaydi, degan g‘oyasiga borib taqaladi [Underhill, 2009: 9]. Bu g‘oya keyinchalik olamning lisoniy manzarasi nazariyasining asosiga aylandi, paremiologiya esa XX asrda mustaqil fan sifatida shakllanib, maqollarning tuzilishi, ma’nosi va vazifalarini o‘rganuvchi o‘z nazariy apparatiga ega bo‘ldi. Ushbu tushunchalarning mazmuni va ular atrofidagi munozaralar maqolaning nazariy qismida ko‘rib chiqiladi.

Mavzuning dolzarbligi quyidagi bir necha omil bilan izohlanadi. Birinchidan, globallashuv jarayonida ingliz tili xalqaro muloqot tili sifatida alohida ahamiyat kasb etadi, biroq ingliz paremiologik birliklari lingvomadaniy dunyoqarash nuqtayi nazaridan hozirgacha yetarlicha yaxlit va tizimli tahlil qilinmagan. Ikkinchidan, hozirgi paremiologik tadqiqotlarning ko‘pchiligi ayrim mavzuiy guruhlarga (gender, vaqt, axloqiy-diniy konseptlar) qaratilgan bo‘lib, bu guruhlarni yaxlit bir olam manzarasi tizimi sifatida birlashtirib ko‘rsatuvchi ishlar nisbatan kam. Uchinchidan, amaliy nuqtayi nazardan, ingliz paremiologik tizimining chuqur o‘rganilishi tarjima sifatini oshirish va xorijiy tilni o‘qitish jarayonini boyitish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ingliz maqollari so‘nggi yillarda turli jihatdan o‘rganilmoqda, biroq bu tadqiqotlarning aksariyati bitta konsept yoki bitta mavzuiy guruh bilan chegaralanadi. R. J. B. Soares paremiologiyaning paremiografiyadan ajralib, mustaqil fan sifatida shakllanish tarixini yoritgan [Soares, 2010: 163], Ch. Malunga esa paremiologik yondashuvni tashkilot boshqaruvi kabi amaliy sohalarga ham tatbiq etish mumkinligini ko‘rsatgan [Malunga, 2017: 12]. Ammo bu ishlar maqollarning mazmuniy tizimiga emas, fanning maqomi va qo‘llanish doirasiga bag‘ishlangan. Ingliz maqollarining mazmuniga oid tadqiqotlar orasida T. E. Alekseevaning ishlari alohida ajralib turadi. U 373 ta maqolni ijtimoiy stereotiplar nuqtayi nazaridan tahlil qilib, ularning qariyb yarmi gender stereotiplariga, qolganlari esa yosh, etnik va kasbiy stereotiplarga tegishli ekanini aniqlagan [Alekseeva, 2022: 129]; boshqa bir ishida yetti o‘lim gunohi mavzusidagi 264 ta maqolni Bibliya an’anasi bilan bog‘lab o‘rgangan [Alekseeva, 2023: 248]. Har ikki tadqiqot katta material asosida yozilgan bo‘lsa-da, birinchisi faqat stereotiplar qatlamini, ikkinchisi esa diniy-axloqiy qatlamni qamrab oladi; vaqt, mehnat, pul kabi qadriyatlar ular doirasidan chetda qoladi.

Stereotiplarning shakllanish mexanizmi A. Y. Piterova va E. A. Teterinaning umumnazariy ishida yoritilgan [Piterova & Teterina, 2016: 4], lekin bu ish paremiologik materialga tayanmaydi. T. G. Orlova va E. F. Nikulina yaxshilik-yomonlik konseptini [Orlova & Nikulina, 2016: 101], T. G. Orlova do‘stlik [Orlova 2020: 301] va nikoh [Orlova, 2021: 1075] konseptlarini, P. Oleneva esa pul konseptini [Oleneva, 2023: 149] ingliz va rus maqollari qiyosida tahlil qilgan. M. Ciesielkiewicz maqollardagi gender tarafkashligini [Ciesielkiewicz, 2019: 48], H. Chen va X. Ao amerikacha individualizmning maqollardagi ifodasini [Chen & Ao, 2015: 37] o‘rgangan. D. Villers va V. Mieder “*Time is money*” maqolining kelib chiqish tarixini aniqlashtirgan [Villers & Mieder, 2017: 391], Y. G. Fateeva va hammualliflar esa donishmandlik konseptini jahon xalqlari maqollari misolida ko‘rib chiqqan [Fateeva va boshq., 2021: 217].

Bu tadqiqotlarni bir-biri bilan solishtirganda uchta ochiq masala ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, har bir konsept alohida o‘rganilgan, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik esa, ya’ni individualizm, vaqt, mehnat va pulga oid qarashlar bir-birini taqozo etadimi yoki yo‘qmi, degan savol ochiq qolgan. Ikkinchidan, ayrim tadqiqotlar amerikacha material asosida olib borilgan [Chen & Ao, 2015: 37], shu bois ulardagi xulosalarni butun ingliz paremiologik fondiga ko‘chirishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Uchinchidan, asosiy qadriyatlarga zid ma’no tashuvchi maqollar, masalan, hamkorlikni ulug‘lovchi birliklar, odatda istisno sifatida tilga olinadi va ularning tizimdagi o‘rni alohida tahlil qilinmaydi. Ushbu maqolada aynan shu masalalar ko‘rib chiqiladi: avvalgi ishlarda alohida tahlil qilingan guruhlar bitta modelga birlashtiriladi, ular orasidagi bog‘liqlik aniqlanadi va zid ma’noli birliklarning vazifasi izohlanadi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilidagi paremiologik birliklarning semantik, obrazli va pragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda ular orqali ingliz xalqining lingvomadaniy dunyoqarashini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: paremiologiya va olam manzarasi tushunchalarining nazariy asoslarini yoritish, ingliz paremiologik birliklarini mavzuiy guruhlarga ajratib tahlil qilish, har bir guruhning ingliz milliy mentalitetidagi o‘rnini aniqlash hamda olingan natijalar asosida ingliz paremiologik olam manzarasining yaxlit tizim sifatidagi tuzilishini umumlashtirish. Tadqiqot obyekti sifatida ingliz tilidagi maqol va matallar, predmeti sifatida esa ularda aks etgan milliy-madaniy xususiyatlar va olam manzarasining lisoniy ifodasi belgilandi.

Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: 1) ingliz maqollarida qaysi mavzuiy guruhlar yetakchilik qiladi va ular olam manzarasining yadrosi

hamda periferiyasini qanday tashkil etadi? 2) yadro konseptlari, ya’ni shaxsiy mas’uliyat, vaqt, mehnat va pulga munosabat bir-biri bilan qanday bog‘langan? 3) asosiy qadriyatlarga zid ma’no tashuvchi maqollar tizimda qanday vazifa bajaradi? 4) maqollarning obrazli asosi, xususan, N. Norrik ajratgan metafora turlari, ular ifodalagan konseptlar bilan qanday bog‘liq? Birinchi savolga konseptual-mavzuiy tahlil, ikkinchi va uchinchi savollarga kontekstual tahlil va umumlashtirish, to‘rtinchi savolga esa komponent tahlil orqali javob beriladi.

Maqolaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat. Birinchidan, avvalgi ishlarda alohida-alohida o‘rganilgan mavzuiy guruhlar (individualizm, vaqt, mehnat, pul, gender, yosh, kasb, axloqiy qadriyatlar va boshqalar) yagona tizim sifatida ko‘rib chiqilib, “yadro – periferiya” tamoyili asosida tasniflandi: tahlil yadroni shaxsiy mas’uliyat, vaqtni qadrlash va pragmatik hisob-kitob konseptlari tashkil etishini, do‘stlik, oila, sog‘liq va tabiatga oid guruhlar esa periferiyada joylashishini ko‘rsatdi. Ikkinchidan, yadro konseptlari bir-biri bilan mantiqan bog‘langani aniqlandi: inson o‘z taqdiri uchun o‘zi javobgar deb bilinar ekan, vaqt ham, mehnat va pul ham uning shaxsiy resursi sifatida talqin qilinadi. Uchinchidan, individualistik yadroga zid ma’no tashuvchi birliklar (“*Two heads are better than one*”, “*Many hands make light work*”, “*Patience is a virtue*”) tizimdagi nomuvofiqlik sifatida emas, balki uni muvozanatlab turuvchi kompensator qatlam sifatida talqin qilindi. To‘rtinchidan, N. Norrikning metaforik maqollar tasnifi (predikat kengaytmasi, metaforik animatsiya, konkretlashtirish, obyekt-atribut) olam manzarasi konseptlarini ochib berish vositasi sifatida qo‘llanildi.

Nazariy qism

Olam lisoniy manzarasi tushunchasi tilshunoslikda bir xil talqin qilinmaydi. V. fon Gumboldt tilni xalq ruhining ifodasi deb bilgan va har bir tilda dunyoni ko‘rishning o‘ziga xos usuli mujassam ekanini ta’kidlagan [Underhill, 2009: 9]. E. Sepir va B. Uorf bu fikrni yanada keskinlashtirib, til fikrlashni belgilaydi, inson borliqni ona tili orqali idrok etadi, degan xulosaga kelgan [Underhill, 2009: 9]. M. Xaydegger esa masalaga falsafiy jihatdan yondashib, olam manzarasini dunyoning tasviri emas, balki olamni manzara sifatida anglash usuli deb talqin qiladi [Heidegger, 1977: 129]. Shu bilan birga, J. Underhill Gumboldt g‘oyasi keyingi tadqiqotchilar tomonidan qo‘pol soddalashtirilganini, til va dunyoqarash o‘rtasidagi murakkab munosabat bir tomonlama “til fikrni belgilaydi” formulasiga tushirib qo‘yilganini tanqid qiladi [Underhill, 2009: 9]. Mazkur maqolada shu tanqidni inobatga olgan holda kuchsizroq talqinga tayanamiz: maqollar

xalq tafakkurini belgilamaydi, balki unda shakllangan baholash va qadriyat mo‘ljallarini qayd etadi hamda avloddan avlodga yetkazadi.

Paremiologiyadagi munozarali masalalardan biri maqolni qaysi belgilar asosida ajratish kerakligidir. N. F. Alefirenko va N. N. Semenenko paremiologik birlikni frazeologik birlikdan sintaktik tugallanganlik orqali farqlaydi: frazeologizm gapning bir bo‘lagi vazifasini bajarsa, paremiya mustaqil, tugallangan fikrni ifodalovchi gap maqomiga ega bo‘ladi [Alefirenko & Semenenko, 2009: 47]. G‘arb paremiologiyasida ham shunga yaqin mezon uzoq vaqt yetakchilik qilgan: F. Seyler (1922) maqollarni o‘z-o‘zicha yopiq gaplar deb ta’riflagan, A. Teylor (1934) ularni to‘liq gaplar sifatida belgilagan; bu mezon maqolni mustaqil gap bo‘la olmaydigan *proverbial phrase*lardan ajratish uchun kiritilgan [Hrisztova-Gotthardt & Aleksa Varga, 2014: 9–10]. Biroq N. Norrik sintaktik gap tushunchasini yetarli deb hisoblamaydi, chunki ko‘plab maqollar standart subyekt-predikat qolipiga sig‘maydi, shu bois u maqolni mustaqil suhbat birligi sifatida tavsiflashni taklif etadi [Hrisztova-Gotthardt & Aleksa Varga, 2014: 8–10]. Masalan, “*No pain, no gain*” maqolida kesim umuman yo‘q, ammo u nutqda to‘liq fikr sifatida qo‘llanadi. Demak, rus an’anasida grammatik mezon, N. Norrik talqinida esa kommunikativ mezon ustuvorlik qiladi. Material tanlashda biz ikkinchi yondashuvga tayandik: birlikning nutqda mustaqil fikr sifatida qo‘llana olishi asosiy shart hisoblandi.

Maqolning boshqa belgilari xususida ham qarashlar bir xil emas. An’anaviylikni deyarli barcha tadqiqotchilar tan oladi: maqol muallifsiz, xalq orasida takrorlanib yuruvchi folklor birligidir [Hrisztova-Gotthardt & Aleksa Varga, 2014: 10]. Didaktiklik masalasida esa farqlar bor. N. F. Alefirenko va N. N. Semenenko har qanday maqolda hayotiy xulosa, o‘git yoki nasihat mujassam ekanini ta’kidlaydi [Alefirenko & Semenenko, 2009: 52], V. Mieder ham maqolni donishmandlik, haqiqat, axloq va an’anaviy qarashlarni ifodalovchi birlik deb ta’riflaydi; boshqa tadqiqotchilar esa didaktik mazmun to‘g‘ridan to‘g‘ri buyruq shaklida ham, bilvosita kuzatuv shaklida ham berilishini, ya’ni har bir maqol ochiq nasihat emasligini ko‘rsatadi [Hrisztova-Gotthardt & Aleksa Varga, 2014: 11]. Shakl barqarorligi ham nisbiy: A. Teylor uni maqolning zaruriy belgisi deb hisoblasa-da, maqollar vaqt o‘tishi bilan leksik va grammatik o‘zgarishlarga uchraydi, biroq kuchli kodlashtirilgani tufayli bitta tayanch iboraning o‘zi butun maqolni xotirada tiklash uchun yetarli bo‘ladi [Hrisztova-Gotthardt & Aleksa Varga, 2014: 12]. Metaforiklik va prosodiya (qofiya, alliteratsiya, assonans) ko‘p maqollarga xos, ammo majburiy emas: N. Barli literal an’anaviy iboralarni metaforik maqollardan

ajratsa, F. Seyler metaforiklikni daraja masalasi deb biladi; “*Time is money*” kabi maqollar esa hech qanday poetik bezaksiz ham maqol maqomiga ega bo‘lgan [Hrisztova-Gotthardt & Aleksa Varga, 2014: 13]. Ana shu tafovutlar sababli paremiologlar maqolni qat’iy belgilar ro‘yxati orqali emas, L. Vitgenshteynning “oilaviy o‘xshashlik” tamoyili asosida tushunishni taklif qiladi [Hrisztova-Gotthardt & Aleksa Varga, 2014: 15]. Umumlashtiruvchi ta’rifga ko‘ra, maqollar takrorlanuvchi, ixcham, ko‘pincha formulaviy yoki obrazli, nisbatan barqaror va tanib olinadigan birliklar bo‘lib, to‘liq bayonot yoki nutqiy harakatni amalga oshirishga xizmat qiladi [Hrisztova-Gotthardt & Aleksa Varga, 2014: 14]. Maqolada ushbu ta’rif ishchi ta’rif sifatida qabul qilindi.

Ingliz maqollarining kelib chiqishi masalasi olam manzarasi tahlili uchun ham ahamiyatli. B. Alster mixxat lavhalari asosida hozirgi Yevropa maqollariga o‘xshash paremiyalar eramizdan avvalgi 2500-yillardayoq og‘zaki muloqotda mavjud bo‘lganini ko‘rsatgan. “*Sour grapes*”, “*To be a dog in the manger*”, “*Don’t kill the goose that lays the golden egg*” kabi ko‘plab metaforik maqollar Ezop masallarining qisqargan shakli hisoblanadi [Hrisztova-Gotthardt & Aleksa Varga, 2014: 32]. Bir xil maqollarning turli Yevropa tillarida deyarli bir xil shaklda uchrashi ularning yunon va rim manbalaridan o‘zlashganini ko‘rsatadi: F. Seyler bunday birliklarni *Lehnsprichwörter* (o‘zlashma maqollar) deb atagan, R. Ch. Trench esa 1853-yildayoq xalqlar bir-biridan doimo maqol olib turishini qayd etgan. Erazm Rotterdamskiyning “*Adagia*” to‘plami antik maqollarning Yevropa bo‘ylab tarqalishida va XVI asr gumanistlarining ta’lim amaliyotida muhim rol o‘ynagan [Hrisztova-Gotthardt & Aleksa Varga, 2014: 33]. Bu holat tadqiqotchi oldiga muhim savol qo‘yadi: umumyevropa qatlamiga mansub maqollar ingliz olam manzarasini ifodalaydimi? Bizningcha, olam manzarasi uchun birlikning kelib chiqishidan ko‘ra uning tilda qabul qilinib, faol qo‘llanishi muhimroq, shu bois bunday maqollar ham ingliz paremiologik fondining tarkibiy qismi sifatida tahlilga jalb qilindi.

Paremiologik birliklarni tasniflashda G. L. Permyakovning mantiqiy-semiotik klassifikatsiyasi alohida o‘rin tutadi; O. Lauhakangas bu yondashuvni rivojlantirib, paremiyalarning mazmuniy tasnifi bilan bir qatorda funksional tasnifini ham taklif etgan [Hrisztova-Gotthardt & Aleksa Varga, 2014: 41]. Maqollarning obrazli tomonini tahlil qilishda esa N. Norrikning metaforik maqollar tasnifi qulay vosita bo‘lib xizmat qiladi. U predikat kengaytmasi, metaforik animatsiya, konkretlashtirish va obyekt-atribut kabi turlarni ajratib, maqolning obrazli asosi uning umumlashtiruvchi ma’nosi bilan qanday bog‘lanishini ko‘rsatadi [Norrick,

1985: 117–125]. Ushbu tasnif maqolaning tahliliy qismida komponent tahlil uchun tayanch vazifasini o‘tadi.

Material va metodologiya

Tadqiqot materiali sifatida ingliz tilidagi 56 ta maqol tahlil qilindi (matnda bir necha marta keltirilgan misollar bir marta hisoblandi). Material ikki yo‘l bilan to‘plandi. Birinchi qismi ingliz maqollariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlardan olindi: individualizmga oid maqollar H. Chen va X. Ao [Chen & Ao, 2015: 37–38], gender stereotiplariga oid maqollar M. Ciesielkiewicz [Ciesielkiewicz, 2019: 47–49], pulga oid maqollar P. Oleneva [Oleneva, 2023: 149–152], do‘stlik va nikohga oid maqollar T. G. Orlova [Orlova, 2020: 301; Orlova, 2021: 1075], kasbiy stereotip va gunoh mavzusidagi misollar T. E. Alekseeva [Alekseeva, 2022: 132; Alekseeva, 2023: 249], huquqiy maqollar esa D. F. Bond [Bond, 1936: 921] tadqiqotlaridan tanlandi. Bu manbalarda misollar odatda bitta konsept doirasida tahlil qilingan, bizning ishimizda esa ular umumiy model doirasida qayta ko‘rib chiqildi. Ikkinchi qismini ingliz tilida keng tanilgan, biroq yuqoridagi tadqiqotlarda tahlil qilinmagan maqollar tashkil etadi (masalan, “*Knowledge is power*”, “*Health is wealth*”, “*Actions speak louder than words*”); ular mavzuiy guruhlarni to‘ldirish maqsadida muallif tomonidan tanlandi. Materialni tanlashda uchta mezonga amal qilindi: 1) birlik nutqda mustaqil fikr sifatida qo‘llana olishi kerak (nazariy qismda qabul qilingan kommunikativ mezon); 2) maqol muayyan konsept yoki qadriyatni aniq ifodalashi lozim; 3) bir-biriga zid yoki xilma-xil pozitsiyani ifodalovchi maqollarga alohida e‘tibor qaratildi, chunki paremiologik tizimning ichki xilma-xilligi aynan ularda ko‘rinadi. Maqollarning zamonaviy nutqdagi qo‘llanish chastotasi korpus ma’lumotlari asosida tekshirilmadi: tanlov tanishlik mezoniga va maqolning ilmiy adabiyotda qayd etilganiga tayanadi. Shu sababli maqolada keltirilgan miqdoriy nisbatlar tanlanma tarkibini aks ettiradi va butun ingliz paremiologik fondiga nisbatan umumlashtirilmaydi.

Tahlil to‘rt bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda konseptual-mavzuiy tahlil yordamida maqollar mavzuiy guruhlarga ajratildi. Guruhga kiritishda maqolning obrazi emas, balki umumlashgan ma’nosi asos qilib olindi: masalan, “*A stitch in time saves nine*” obraz jihatidan tikuvchilik bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ma’nosiga ko‘ra vaqt guruhiga kiradi. Faqat ikki guruh (hayvon obrazlari va tabiat hodisalari) obrazli asos bo‘yicha ajratildi, chunki ularda tahlil predmeti aynan obrazning o‘zidir. Har bir maqol bitta guruhga kiritildi, ikki guruhga taalluqli birliklar esa yetakchi ma’nosiga ko‘ra joylashtirildi. Ikkinchi bosqichda komponent tahlil orqali maqol

tarkibidagi tayanch leksemalarning semantik komponentlari ajratildi va obrazli asos N. Norrik tasnifi bo‘yicha belgilandi [Norrick, 1985: 117–125]. Uchinchi bosqichda kontekstual tahlil yordamida maqolning pragmatik vazifasi aniqlandi. Bunda maqolning grammatik shakli (buyruq yoki darak gap) va nutqdagi vazifasi hisobga olindi: nasihat yoki da’vat (“*Paddle your own canoe*”), ogohlantirish (“*A little learning is a dangerous thing*”), baholovchi umumlashma (“*Time is money*”), tasalli (“*Every cloud has a silver lining*”). Bu ajratish didaktik mazmun bevosita buyruq shaklida ham, bilvosita kuzatuv shaklida ham ifodalanishi mumkinligi haqidagi qarashga asoslanadi [Hrisztova-Gotthardt & Aleksa Varga, 2014: 11]. To‘rtinchi bosqichda guruhlar o‘rtasidagi bog‘liqlik umumlashtirildi va ular olam manzarasining qatlamlariga ajratildi. Yadroga bir-birini mantiqan taqozo etuvchi va birgalikda tanlanmaning yarmini tashkil etuvchi konseptlar kiritildi; gender kabi yirik, ammo bu mantiqiy zanjirga bog‘lanmagan guruhlar alohida qatlam sifatida ko‘rildi. Tahlil qilingan 56 ta maqol guruhlar bo‘yicha quyidagicha taqsimlandi. Yadro qatlamiga 28 ta maqol (50,0 %) kiradi: shaxsiy mas’uliyat, individualizm va taqdir (7), vaqt (4), mehnat (4), pul va tejamkorlik (9), bilim va ehtiyotkorlik (4). Ijtimoiy rollar va stereotiplar qatlamini 10 ta maqol (17,9 %) tashkil etadi: gender (7), yosh (2), kasb-hunar (1). Periferiyaga 18 ta maqol (32,1 %) to‘g‘ri keladi: do‘stlik (2), oila va nikoh (3), sog‘liq (2), tabiat hodisalari va umidvorlik (3), hayvon obrazlari (3), so‘z va amal (2), qonun-huquq (2), axloqiy-diniy qadriyatlar (1).

Tadqiqot natijalari

Tanlangan maqollar yuqorida ko‘rsatilgan 16 ta mavzuiy guruhga ajratildi. Quyida guruhlar qatlamlar tartibida ko‘rib chiqiladi: avval yadro, so‘ngra ijtimoiy rollar va stereotiplar, oxirida periferiya. Har bir guruhda maqollarning semantik asosi, obrazli tuzilishi va pragmatik vazifasi tahlil qilinadi.

Yadro qatlamining markazida shaxsiy mas’uliyat va individualizm konsepti turadi. Bu guruhdagi maqollarning umumiy semantik komponenti “inson o‘z taqdiri uchun o‘zi javobgar” degan g‘oyadir. “*God helps those who help themselves*” maqolida bu g‘oya hatto ilohiy yordamning sharti sifatida beriladi: yordam faqat o‘zi harakat qilgan kishiga va’da qilinadi. H. Chen va X. Ao amerikacha individualizmni tahlil qilar ekan, aynan shu maqolni mustaqillik haqidagi maqollar guruhiga kiritadi [Chen & Ao, 2015: 37]. “*Every man is the architect of his own fortune*” maqolida taqdir qurilish obrazi orqali, “*Paddle your own canoe*” iborasida esa hayot qayiqda suzish obrazi orqali beriladi; ikkala holatda ham mavhum tushuncha aniq jismoniy

harakat orqali ifodalanadi [Chen & Ao, 2015: 37]. "*Every man is nearest himself*", "*Look after number one*" va "*Self-preservation is the first law of nature*" maqollarida individualizm xudbinlik chegarasiga yaqinlashadi, H. Chen va X. Ao ularni shaxsiy manfaatni birinchi oʻringa qoʻyuvchi maqollar sifatida tasniflaydi [Chen & Ao, 2015: 38]. Pragmatik jihatdan bu guruhda buyruq shaklidagi da'vatlar ("*Look after number one*", "*Paddle your own canoe*") va umumlashtiruvchi qoidalar ("*Self-preservation is the first law of nature*") yonma-yon keladi. Guruhda hamkorlik gʻoyasini ifodalovchi "*Two heads are better than one*" maqoli ham bor. Tanlanmadagi yetti maqoldan faqat shu bittasi individualistik qarashga zid boʻlsa-da, uning mavjudligi jamoaviy tajriba ham qadrlanishini koʻrsatadi. Shuni ham hisobga olish kerakki, H. Chen va X. Ao tahlili amerikacha materialga asoslangan, shu bois bu maqollarni ingliz tilida soʻzlashuvchi madaniyatlarning umumiy qatlamiga mansub deb qarash toʻgʻriroq.

Vaqt konsepti yadroning ikkinchi tarkibiy qismidir. "*Time is money*" maqolida vaqt va pul bevosita tenglashtiriladi: vaqt oʻlchab boʻladigan, sarflanadigan va yoʻqotilishi mumkin boʻlgan resurs sifatida tasavvur qilinadi. D. Villers va V. Miederning tadqiqotiga koʻra, bu maqol keng tarqalgan fikrdan farqli oʻlaroq, B. Franklin tomonidan yaratilmagan: u Franklindan ancha oldin, 1719-yilda "The Free Thinker" gazetasida qoʻllanilgan [Villers & Mieder, 2017: 391–392]. "*A stitch in time saves nine*" maqolida oʻz vaqtida qilingan kichik ish keyinchalik katta mehnatni tejashi tikuvchilik obrazi orqali ifodalanadi, "*Time and tide wait for no man*" maqolida esa vaqt insonga boʻysunmaydigan tabiiy hodisa, dengiz suvining koʻtarilishi bilan yonma-yon qoʻyiladi. Har uchala maqol pragmatik jihatdan ogohlantirish vazifasini bajaradi va vaqtni boy bermaslikka undaydi. Bu guruhda "*Patience is a virtue*" maqoli zid qutbni tashkil etadi: oldingi maqollar shoshilishga undasa, bu maqol kutishni fazilat deb biladi. Tanlanmada sabr gʻoyasi faqat shu birlik bilan ifodalangan, bu esa vaqtni faol resurs sifatida koʻrish yetakchilik qilishini koʻrsatadi; biroq bu nisbatni butun fondga koʻchirish uchun korpus ma'lumotlari talab etiladi.

Mehnat guruhidagi maqollar sa'y-harakat va natija oʻrtasidagi sabab-oqibat munosabatini ifodalaydi. "*No pain, no gain*" maqoli kesimsiz, ikki parallel qismdan tuzilgan boʻlib, ixchamligi va ohangdorligi tufayli oson yodda qoladi. "*The early bird catches the worm*" maqolida qushning erta turishi muvaffaqiyat sharti sifatida koʻrsatiladi va bu muayyan holat insonga nisbatan umumiy qoida sifatida qoʻllanadi. A. Călăraș ta'kidlaganidek, ingliz tilini oʻqitishda "*Many hands make light work*" va "*No pain, no gain*" maqollari mehnat va sa'y-harakat mavzusini yoritishda eng koʻp

qo‘llaniladigan namunalardandir [Călăraș, 2025: 527]. “*Rome wasn’t built in a day*” maqoli esa tarixiy obraz orqali uzoq va sabrli mehnat zarurligini ta’kidlaydi [Călăraș, 2025: 528]. Guruhdagi to‘rt maqoldan uchtasi mehnatni shaxsiy erishuv vositasi sifatida ko‘rsatadi, “*Many hands make light work*” esa jamoaviy mehnatni maqtaydi va individualistik yadroni muvozanatlab turadi.

Pul va tejamkorlik guruhi tanlanmadagi eng yirik guruhdir (9 ta maqol). “*A penny saved is a penny earned*” maqolida tejash topish bilan tenglashtiriladi, ya’ni pulni saqlash ham mehnatning bir turi sifatida baholanadi. P. Olenevaning kognitiv tahliliga ko‘ra, ingliz maqollarida pul ko‘pincha jonli mavjudot yoki inson sifatida talqin qilinadi: “*Money makes the world go round*” maqolida u dunyoni harakatga keltiruvchi kuch sifatida gavdalantiriladi [Oleneva, 2023: 149]. Boshqa maqollarda pul obyekt sifatida ko‘riladi: “*Money is round and rolls away*” boylikning beqarorligini, “*Money is the sinews of trade*” esa uning savdodagi tayanch o‘rnini ta’kidlaydi [Oleneva, 2023: 150]. “*A bad penny always comes back*” maqoli salbiy xulqning oqibati haqida ogohlantiradi [Oleneva, 2023: 150–151]. P. Oleneva bergan ma’lumotlarga ko‘ra, ingliz pul-maqollarining 43 foizi inson xulq-atvorini baholash uchun ishlatiladi; masalan, “*Civility costs nothing*” maqolida xushmuomalalik pul o‘lchovi orqali baholanadi [Oleneva, 2023: 150]. Tavakkalchilikka oid “*Scared money can’t make money*”, “*You can spend a dollar only once*” va “*You never accumulate if you don’t speculate*” maqollari moliyaviy qarorlarning qaytarilmasligi va tavakkal zarurligini ta’kidlaydi [Oleneva, 2023: 151–152]. Pragmatik jihatdan bu guruhda maslahat va ogohlantirish vazifalari ustun. Mazmunan esa pul guruhi vaqt va mehnat guruhlari bilan bevosita bog‘lanadi: vaqt pulga tenglashtiriladi, mehnat esa pul topish vositasi sifatida qaraladi.

Bilim va ehtiyotkorlik guruhida bilim amaliy foyda manbai sifatida talqin qilinadi. “*Knowledge is power*” maqoli bilimni kuch bilan tenglashtiradi, “*A little learning is a dangerous thing*” esa yuzaki bilimning xavfli ekani haqida ogohlantiradi. Y. G. Fateeva va hammualliflar jahon xalqlari maqollarini qiyosiy o‘rganib, donishmandlik konseptining umumiy yadrosini aql, bilim, so‘z, nutq, sukut, ustoz va amal tushunchalari tashkil etishini aniqlagan [Fateeva va boshq., 2021: 217]; mualliflar donishmandlik faqat bilim va so‘zda emas, amalda ham namoyon bo‘lishini alohida ta’kidlaydi [Fateeva va boshq., 2021: 215–216]. Ingliz maqollarida aynan shu amaliy jihat kuchli: “*Better safe than sorry*” xavfni oldindan bartaraf etishga, “*Once bitten, twice shy*” esa o‘tmish tajribasidan saboq olishga undaydi. Bu ikki maqol N. Norrik tasnifidagi predikat

kengaytmasiga misol bo'ladi: muayyan holatni ifodalovchi kesim umumiy hayotiy tajribaga nisbatan qo'llanadi [Norrick, 1985: 117–118]. Demak, bu guruhda ham bilim mavhum qadriyat sifatida emas, shaxsiy manfaatni himoya qiluvchi vosita sifatida ko'rinadi va shu jihati bilan yadro qatlamiga bog'lanadi.

Ijtimoiy rollar va stereotiplar qatlamida gender guruhi yetakchilik qiladi. T. E. Alekseevaning tadqiqotiga ko'ra, u tahlil qilgan ingliz maqollarining qariyb yarmi gender stereotiplari bilan bog'liq [Alekseeva, 2022: 129]. M. Ciesielkiewicz ayollarga oid ingliz maqollarini tahlil qilib, ularning aksariyati ayolni ojiza, sergap yoki jahldor qilib tasvirlashini ko'rsatgan [Ciesielkiewicz, 2019: 48]. "*A woman's work is never done*" va "*A woman's place is in the home*" maqollari ayolning ijtimoiy rolini uy doirasi bilan chegaralaydi [Ciesielkiewicz, 2019: 49]. "*A man is as old as he feels, and a woman as old as she looks*" maqolida erkak va ayol bitta qolip ichida qarama-qarshi qo'yiladi: erkakning qadri ichki holati bilan, ayolniki esa tashqi ko'rinishi bilan o'lchanadi [Ciesielkiewicz, 2019: 47]. Ayolning g'azabi va kek saqlashiga oid "*Hell has no fury like a woman scorned*" va "*Women and elephants never forget*" maqollari alohida guruhni tashkil etadi [Ciesielkiewicz, 2019: 48]; ikkinchisida ayolning xotirasi filning xotirasiga qiyoslanadi. Erkaklarga oid maqollar kamroq bo'lib, ularda ustunlik ("*A man of straw is worth a woman of gold*") yoki vafosizlik ("*A man among the geese when the gander is away*") mavzusi uchraydi [Ciesielkiewicz, 2019: 49]. Pragmatik jihatdan bu guruhdagi maqollarning deyarli barchasi baholovchi umumlashma shaklida bo'lib, nasihatdan ko'ra ijtimoiy rollarni qayd etish va mustahkamlash vazifasini bajaradi.

Yosh guruhi ham shu qatlamga kiradi. T. E. Alekseevaning ma'lumotiga ko'ra, u tahlil qilgan 373 ta maqolning 21 foizi yosh stereotiplari bilan bog'liq bo'lib, bu gender guruhidan keyingi ikkinchi yirik guruhdir [Alekseeva, 2022: 130]. Tanlanmadagi ikki maqol keksalikka qarama-qarshi baho beradi: "*You can't teach an old dog new tricks*" maqolida keksa inson qari it obrazi orqali o'zgarishga moyil emas deb ko'rsatilsa, "*With age comes wisdom*" iborasi keksalikni donishmandlik bilan bog'laydi. Birinchisi salbiy, ikkinchisi ijobiy baho bo'lib, bir guruh ichida ham qadriyatlar bir xil emasligini ko'rsatadi.

Kasb-hunarga oid stereotiplar ham ingliz paremiologik fondida o'z aksini topgan. T. E. Alekseevaning statistik tahliliga ko'ra, u tahlil qilgan maqollarning 12 foizi kasbiy stereotiplarga bag'ishlangan [Alekseeva, 2022: 132]. "*Lawyers' houses are built on the heads of fools*" maqolida giperbolik obraz orqali huquqshunoslarga nisbatan kinoyali munosabat

ifodalanadi; T. E. Alekseeva ta’kidlaganidek, bunday maqollar jamiyatning muayyan kasb egalariga nisbatan tarixan shakllangan ishonchsizligini aks ettiradi [Alekseeva, 2022: 132].

Periferiya qatlamidagi guruhlar kichikroq boʻlib, yadro konseptlari bilan bilvosita bogʻlanadi. Doʻstlik guruhida “*Birds of a feather flock together*” maqoli doʻstlikni oʻxshashlik asosida shakllanuvchi munosabat sifatida ta’riflaydi, “*A friend in need is a friend indeed*” esa doʻstning qadrini qiyin vaziyatdagi sinov bilan oʻlchaydi. T. G. Orlovaning tadqiqotiga koʻra, ingliz tilidagi doʻstlik konseptini ifodalovchi maqollarning aksariyati qisqa boʻlib, lotin iboralari va Bibliyadan olingan iqtiboslar ta’sirida shakllangan [Orlova, 2020: 301]. Ikkinchi maqolda doʻstlik foyda emas, sadoqat orqali baholansa-da, “sinov” gʻoyasining oʻzi munosabatni amaliy natija orqali tekshirish tamoyiliga yaqin turadi.

Oila va nikoh mavzusi tanlanmada uchta maqol bilan ifodalangan. “*Charity begins at home*” maqoli gʻamxoʻrlik avvalo oʻz oilasidan boshlanishini ta’kidlaydi. T. G. Orlovaning tadqiqotiga koʻra, nikohga oid ingliz maqollarida ikki qarama-qarshi tendensiya kuzatiladi: “*A good wife and health is a man’s best wealth*” kabi maqollar nikohni qadrlasa, “*Marry in haste, repent at leisure*” kabilar shoshilinch qarorning xavfidan ogohlantiradi [Orlova, 2021: 1075]. Birinchi maqolda yaxshi xotin va sogʻliq boylikka tenglashtirilishi periferiya guruhlari ham yadrodagi moddiy baholash modeliga tayanishini koʻrsatadi.

Sogʻliq guruhida “*An apple a day keeps the doctor away*” maqoli sogʻliqni saqlashning oddiy, kundalik usulga asoslanishini koʻrsatadi, “*Health is wealth*” iborasi esa sogʻliqni boylik bilan tenglashtiradi. Ikkinchi maqolda ham pul oʻlchovi qoʻllanishi bu guruhni yadro bilan bogʻlaydi.

Tabiat hodisalari bilan bogʻliq maqollarda tabiiy obraz inson hayotiga oid umumiy qoidani ifodalash vositasiga aylanadi. “*Make hay while the sun shines*” iborasi qishloq mehnatidan olingan obraz orqali qulay fursatdan foydalanish zarurligini ta’kidlaydi va predikat kengaytmasiga misol boʻladi [Norrick, 1985: 117]. “*Every cloud has a silver lining*” maqoli qiyinchilikda ham umid saqlash gʻoyasini bulut obrazi orqali ifodalaydi, N. Norrik bunday maqollarni metaforik konkretlashtirish turiga kiritadi [Norrick, 1985: 123]. Shunga yaqin gʻoya “*Tomorrow is another day*” iborasida obrazsiz, toʻgʻridan-toʻgʻri ifodalanadi. Pragmatik jihatdan bu guruhda tasalli va da’vat vazifalari ustun.

Hayvon nomlari ishtirok etgan maqollar orqali xalqning jonivorlarga va ular vositasida inson xarakteriga munosabatini kuzatish mumkin. "*Don't count your chickens before they hatch*" maqoli ehtiyotkorlik va oldindan xulosa chiqarmaslik g'oyasini ifodalaydi. "*A dog is a man's best friend*" iborasida it sadoqatli hamroh sifatida gavdalanadi. N. Norrik o'z tasnifida shunday hayvon obrazli birliklarni metaforik animatsiya turiga kiritadi [Norrick, 1985: 121]. "*Don't look a gift horse in the mouth*" maqolida esa ot obrazi orqali sovg'ani qadrlash, uning kamchiligini qidirmaslik g'oyasi beriladi. Bu guruhdagi uch maqoldan ikkitasi buyruq shaklidagi nasihat bo'lib, ehtiyotkorlik va amaliylikka undaydi.

So'z va amal guruhida ichki qarama-qarshilik yaqqol ko'rinadi. "*The pen is mightier than the sword*" maqoli so'z va fikrning jismoniy kuchdan ustunligini ta'kidlasa, "*Actions speak louder than words*" aksincha, amaliy ishni so'zdan ustun qo'yadi. Y. G. Fateeva va hammualliflar ko'plab xalqlar paremiologiyasida so'z va nutq tushunchalari donishmandlik konsepti bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatgan [Fateeva va boshq., 2021: 214]. Birinchi maqolda mavhum tushunchalar (so'z va kuch) aniq predmetlar (qalam va qilich) orqali beriladi, bu N. Norrik ajratgan obyekt-atribut turidagi metaforaga mos keladi [Norrick, 1985: 125].

Qonun-huquq tushunchasi ham ingliz paremiologik olam manzarasida o'ziga xos ifodasini topgan. D. F. Bondning tadqiqotiga ko'ra, ingliz xalq maqollari ko'pincha rasmiy huquqiy tizimning norasmiy, xalqchil ifodasi vazifasini bajaradi [Bond, 1936: 921]. "*Possession is nine points of the law*" maqoli mulkka egalik qilishning amaliy ustunligini ta'kidlasa, "*Ignorance of the law excuses no one*" maqoli har bir kishining qonun oldidagi javobgarligini bildiradi. D. F. Bond ta'kidlaganidek, bunday maqollar ingliz huquqiy an'anasining ikki asosiy manbasi, german xalq huquqi va rim huquqining tildagi aksidir [Bond, 1936: 921–922]. Ikkinchi maqoldagi shaxsiy javobgarlik g'oyasi bu guruhni ham yadro bilan bog'laydi.

Axloqiy-diniy qadriyatlar guruhi tanlanmada bitta maqol bilan ifodalangan. T. E. Alekseeva ingliz maqollarida yetti o'lim gunohi mavzusining aks etishini 264 ta maqol asosida o'rgangan [Alekseeva, 2023: 249]. "*Pride comes before a fall*" maqolida kibr gunohi muqarrar jazo bilan bog'lanadi. T. G. Orlova va E. F. Nikulina yaxshilik-yomonlik konseptini o'rganib, ingliz paremiologik tizimida bu qarama-qarshilik axloqiy-baholovchi tizimni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ekanini ko'rsatgan [Orlova & Nikulina, 2016: 101]. Tanlanmamizda bu guruhning kichikligi tadqiqot

yadro konseptlariga qaratilgani bilan bog‘liq va diniy-axloqiy qatlamning ingliz fondidagi o‘rnini kamaytirib ko‘rsatmaydi.

Natijalar muhokamasi

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalari ingliz paremiologik olam manzarasining bir necha o‘zaro bog‘liq xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu xususiyatlarni umumlashtirar ekanmiz, ular o‘rtasida ma’lum bir ichki mantiq mavjudligini payqash mumkin. Individualizm, vaqtni qadrlash va pragmatik hisob-kitob kabi konseptlar aslida bir-biridan ajralgan holda emas, balki yaxlit bir dunyoqarash tizimining turli qirralari sifatida namoyon bo‘ladi. Agar inson o‘z taqdiri uchun birinchi navbatda o‘zi javobgar deb hisoblansa, unda vaqt ham shaxsiy resurs sifatida qadrlanishi mantiqan tabiiy hisoblanadi, chunki bu ikkala qarash ham insonning o‘z hayotini mustaqil boshqarish qobiliyatiga asoslangan dunyoqarashdan kelib chiqadi. Bu kuzatuv M. Xaydeggerning olam manzarasi tushunchasi haqidagi fikrini amaliy jihatdan tasdiqlaydi, chunki tilda aks etgan ayrim-ayrim birliklar aslida yaxlit bir dunyoni anglash usulining bo‘laklari sifatida qaralishi kerak [Heidegger, 1977: 129]. Bu natija H. Chen va X. Aoning amerikacha maqollar bo‘yicha kuzatuvlariga mos keladi [Chen & Ao, 2015: 37–38]. Ayni paytda T. E. Alekseevaning 373 ta maqol asosidagi tahlilida eng yirik guruhni gender stereotiplari tashkil etgani [Alekseeva 2022: 129] ingliz paremiologik fondida individualizm bilan bir qatorda ijtimoiy rollarga oid qatlam ham salmoqli ekanini ko‘rsatadi; bizning tanlanmamizda bu qatlam alohida ajratildi. Ayni paytda shuni ham ta’kidlash lozimki, individualizm mutlaq emas, balki nisbiy xarakterga ega, ingliz tilida hamkorlikni ulug‘lovchi “*Two heads are better than one*” kabi maqollar ham uchraydi. Bu holat paremiologik tizimni statik emas, balki dinamik hodisa sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi, chunki xalq donishmandligi turli hayotiy vaziyatlarga moslashuvchan javob berish imkonini beradigan xilma-xil qoidalar to‘plamidan iborat [Hrisztova-Gotthardt & Aleksa Varga, 2014: 26].

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat, ingliz paremiologik tizimidagi konseptlarning o‘zaro bog‘lanish darajasi. Masalan, T. G. Orlova va E. F. Nikulinaning tadqiqoti ham shuni ko‘rsatadiki, ingliz maqollaridagi axloqiy-baholovchi tizim alohida-alohida emas, balki yagona qadriyatlar tarmog‘ining bir qismi sifatida faoliyat yuritadi [Orlova & Nikulina, 2016: 101]. Gender stereotiplariga oid natijalar ham shu umumiy tizim bilan uyg‘unlashadi. M. Ciesielkiewicz ko‘rsatganidek, ayollarga oid salbiy stereotipik maqollarning aksariyati XIV–XIX asrlarda shakllangan bo‘lib, bu ularning tarixiy-madaniy sharoit bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi

[Ciesielkiewicz, 2019: 48–49]. A. Y. Piterova va E. A. Teterina taklif etgan umumnazariy model bizning tadqiqotimizda aniqlangan stereotiplarga oid natijalarni tushuntirishda ham qo‘l keladi, ularning fikricha stereotip avvalo oddiylashtirilgan, keyin esa umumlashtirilgan shaklda ijtimoiy xotirada saqlanadi [Piterova & Teterina, 2016: 4].

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, xorijiy til o‘qitish amaliyotida paremiologik birliklarni o‘rgatish, xususan, A. Călăraș ko‘rsatganidek mehnat va sabot mavzusidagi maqollarni o‘qitishda qo‘llash, til boyligini oshirish bilan birga tegishli xalqning dunyoqarashini ham singdirishga xizmat qiladi [Călăraș, 2025: 527]. Ikkinchidan, tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan, ingliz maqollarining pragmatik va madaniy konteksti hisobga olinishi zarurligi yana bir bor tasdiqlandi.

Tadqiqotning bir qator cheklovlari bor. Birinchidan, tanlanma 56 ta maqoldan iborat va mavzuiy tamoyil asosida shakllantirilgan, shu bois guruhlar o‘rtasidagi miqdoriy nisbat tilning o‘zidagi nisbatni emas, tanlanma tarkibini aks ettiradi. Ikkinchidan, maqollarning zamonaviy nutqdagi qo‘llanish chastotasi korpus orqali tekshirilmagan. Uchinchidan, materialning bir qismi (H. Chen va X. Ao tahlil qilgan maqollar, “*dollar*” so‘zi ishtirok etgan birliklar) amerikacha qatlamga mansub, shu sababli natijalar britaniya va amerika variantlarini farqlamagan holda ingliz tilida so‘zlashuvchi madaniyatlarning umumiy paremiologik fondiga nisbatan olingan. Bu cheklovlarni kelgusi tadqiqotlarda korpus usullari yordamida bartaraf etish mumkin.

Xulosa

Tadqiqotda ingliz tilidagi 56 ta maqol 16 ta mavzuiy guruh va uch qatlam bo‘yicha tahlil qilindi. Material tahlilidan bevosita quyidagi natijalar olindi. Birinchidan, tanlanmaning yarmini shaxsiy mas’uliyat, vaqt, mehnat, pul hamda bilim va ehtiyotkorlikka oid maqollar tashkil etadi; bu guruhlar umumiy semantik komponent, ya’ni inson o‘z hayoti, vaqti va mablag‘i uchun shaxsan javobgar degan g‘oya atrofida birlashadi. “*God helps those who help themselves*”, “*Time is money*”, “*No pain, no gain*” kabi maqollar shu g‘oyaning turli qirralarini ifodalaydi. Ikkinchidan, yadro konseptlari bir-biri bilan bevosita bog‘langan: vaqt pulga tenglashtiriladi, mehnat pul topish va shaxsiy erishuv vositasi sifatida qaraladi, sog‘liq va oilaga oid ayrim maqollarda ham pul o‘lchovi qo‘llanadi. Uchinchidan, yadroning uchta guruhida asosiy qadriyatga zid ma’noli birliklar uchraydi (“*Two heads are better than one*”, “*Many hands make light work*”, “*Patience is a*

virtue”). To‘rtinchidan, gender, yosh va kasbga oid maqollar yadro zanjiriga bog‘lanmaydigan, ijtimoiy rollarni qayd etuvchi alohida qatlamni tashkil etadi va ularda baholovchi umumlashma shakli ustunlik qiladi.

Bu natijalar asosida quyidagi nazariy umumlashmani taklif qilish mumkin: ingliz paremiologik olam manzarasini alohida konseptlar yig‘indisi sifatida emas, yadrosi va periferiyasi bor tizim sifatida tavsiflash maqsadga muvofiq, zid ma’noli birliklar esa bu tizimdagi nomuvofiqlik emas, uni turli hayotiy vaziyatlarga moslashtiruvchi kompensator qatlam vazifasini bajaradi. Bu xulosa J. Underhill va M. Xaydegger talqinidagi olam manzarasi tushunchasiga mos keladi, biroq u cheklangan tanlanmaga asoslangani sababli yadro va periferiya chegaralari katta material asosida tekshirilishi lozim.

Natijalardan ingliz tilini o‘qitishda, tarjima amaliyotida va madaniyatlararo muloqotga oid kurslarda foydalanish mumkin: maqolni alohida emas, o‘z guruhi va zid ma’noli juftligi bilan birga o‘rgatish talabaga ingliz dunyoqarashini to‘liqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Kelgusida yadro va periferiya chegaralarini korpus ma’lumotlari asosida tekshirish, britaniya va amerika materialini alohida tahlil qilish hamda ingliz paremiologik olam manzarasini o‘zbek maqollari bilan qiyoslash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Bond D. F. English legal proverbs // PMLA. — 1936. — Vol. 51, № 4. — P. 921–935.

Călăraș A. English proverbs as mirrors of cultural values: structural and semantic insights // Научно-образовательное пространство: реалии и перспективы повышения качества образования: материалы V Международной научно-практической конференции. — Комрат: Комратский государственный университет, 2025. — С. 526–528.

Chen H., Ao X. A study of American individualism in proverbs from the perspective of sociolinguistics // Proceedings of the 2015 International Conference on Humanities and Social Science Research (ICHSSR 2015). — Atlantis Press, 2015. — P. 36–39.

Ciesielkiewicz M. Language as a looking glass: a glimpse at how proverbs reflect gender bias // Journal of Linguistics and Literature. — 2019. — Vol. 3, № 2. — P. 45–50. — DOI: 10.12691/jll-3-2-2.

Fateeva Yu. G., Ignatenko O. P., Altukhova O. N., Fomina T. K. Linguistic and cultural analysis of the concept “wisdom” in the world proverbs //

Economic and Social Trends for Sustainability of Modern Society (ICEST-II 2021). European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. — 2021. — Vol. 116. — P. 210–217. — DOI: 10.15405/epsbs.2021.09.02.22.

Heidegger M. The age of the world picture // The question concerning technology and other essays / transl. by W. Lovitt. — New York: Garland Publishing, 1977. — P. 115–154.

Introduction to paremiology: a comprehensive guide to proverb studies / ed. by H. Hrisztova-Gotthardt, M. Aleksa Varga. — Warsaw; Berlin: De Gruyter Open, 2014. — DOI: 10.2478/9783110410167.

Malunga C. Organization paremiology: a new approach to organizational improvement. — London: Adonis & Abbey Publishers, 2017.

Norrick N. R. How proverbs mean: semantic studies in English proverbs. — Berlin; New York; Amsterdam: Mouton, 1985.

Oleneva P. Conceptualization of money in English and Russian proverbs: a cognitive perspective // Proverbium: Yearbook of International Proverb Scholarship. — 2023. — Vol. 40, № 1. — P. 134–160. — DOI: 10.29162/pv.40.1.349.

Orlova T. G. The implementation of the conception of friendship on the basis of comparative structural-semantic analysis of English and Russian proverbs // RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics. — 2020. — Vol. 11, № 2. — P. 301–318. — DOI: 10.22363/2313-2299-2020-11-2-301-318.

Orlova T. G. Structural and semantic analysis of English and Russian proverbs about marriage as a source of expression of cultural and national identity // RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics. — 2021. — Vol. 12, № 4. — P. 1075–1093. — DOI: 10.22363/2313-2299-2021-12-4-1075-1093.

Orlova T. G., Nikulina E. F. On good and evil expression in English and Russian proverbs as a reflection of English and Russian mentality // RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics. — 2016. — № 2. — P. 101–106.

Soares R. J. B. From paremiography to paremiology: the role of AIP-IAP as an international and cultural exchange facilitator // Folklore: Electronic Journal of Folklore. — 2010. — Vol. 46. — P. 161–168. — DOI: 10.7592/FEJF2010.46.soares.

Underhill J. W. Humboldt, worldview and language. — Edinburgh: Edinburgh University Press, 2009.

Villers D., Mieder W. Time is money: Benjamin Franklin and the vexing problem of proverb origins // Proverbium: Yearbook of International Proverb Scholarship. — 2017. — Vol. 34. — P. 391–404.

Алексеева Т. Е. Английские пословицы как отражение социальных стереотипов // Вестник Самарского университета. История, педагогика, филология. — 2022. — Т. 28, № 3. — С. 127–135. — DOI: 10.18287/2542-0445-2022-28-3-127-135.

Алексеева Т. Е. Дискурс смертных грехов в английских пословицах // Верхневолжский филологический вестник. — 2023. — № 3 (34). — С. 246–255. — DOI: 10.20323/2499_9679_2023_3_34_246.

Алефиренко Н. Ф., Семененко Н. Н. Фразеология и паремиология: учебное пособие. — Москва: Флинта: Наука, 2009. — 344 с.

Питерова А. Ю., Тетерина Е. А. Социальные стереотипы: особенности формирования и изучения // Наука. Общество. Государство: электронный научный журнал. — 2016. — Т. 4, № 1 (13). — URL: http://esj.pnzgu.ru.

References

Alefirenko, N. F., & Semenenko, N. N. (2009). *Frazeologiya i paremiologiya* [Phraseology and paremiology]. Flinta; Nauka.

Alekseeva, T. E. (2022). Angliiskie poslovitsy kak otrazhenie sotsial'nykh stereotipov [English proverbs as a reflection of social stereotypes]. *Vestnik Samarskogo universiteta. Istoriya, pedagogika, filologiya, 28*(3), 127–135. https://doi.org/10.18287/2542-0445-2022-28-3-127-135

Alekseeva, T. E. (2023). Diskurs smertnykh grekhov v angliiskikh poslovitsakh [The discourse of deadly sins in English proverbs]. *Verkhnevolzhskii filologicheskii vestnik*, (3), 246–255. https://doi.org/10.20323/2499_9679_2023_3_34_246

Bond, D. F. (1936). English legal proverbs. *PMLA, 51*(4), 921–935.

Călăraș, A. (2025). English proverbs as mirrors of cultural values: Structural and semantic insights. In *Nauchno-obrazovatel'noe prostranstvo: Realii i perspektivy povysheniya kachestva obrazovaniya* [Scientific and educational space: Realities and prospects for improving the quality of education] (pp. 526–528). Comrat State University.

Chen, H., & Ao, X. (2015). A study of American individualism in proverbs from the perspective of sociolinguistics. In *Proceedings of the 2015 International Conference on Humanities and Social Science Research (ICHSSR 2015)* (pp. 36–39). Atlantis Press.

Ciesielkiewicz, M. (2019). Language as a looking glass: A glimpse at how proverbs reflect gender bias. *Journal of Linguistics and Literature, 3*(2), 45–50. https://doi.org/10.12691/jll-3-2-2

Fateeva, Y. G., Ignatenko, O. P., Altukhova, O. N., & Fomina, T. K. (2021). Linguistic and cultural analysis of the concept "wisdom" in the world proverbs. In *Economic and social trends for sustainability of modern society (ICEST-II 2021)* (European Proceedings of Social and Behavioural Sciences, Vol. 116, pp. 210–217). https://doi.org/10.15405/epsbs.2021.09.02.22

Heidegger, M. (1977). The age of the world picture. In *The question concerning technology and other essays* (W. Lovitt, Trans., pp. 115–154). Garland Publishing.

Hrisztova-Gotthardt, H., & Aleksa Varga, M. (Eds.). (2014). *Introduction to paremiology: A comprehensive guide to proverb studies*. De Gruyter Open. https://doi.org/10.2478/9783110410167

Malunga, C. (2017). *Organization paremiology: A new approach to organizational improvement*. Adonis & Abbey Publishers.

Norrick, N. R. (1985). *How proverbs mean: Semantic studies in English proverbs*. Mouton.

Oleneva, P. (2023). Conceptualization of money in English and Russian proverbs: A cognitive perspective. *Proverbium: Yearbook of International Proverb Scholarship, 40*(1), 134–160. https://doi.org/10.29162/pv.40.1.349

Orlova, T. G. (2020). The implementation of the conception of friendship on the basis of comparative structural-semantic analysis of English and Russian proverbs. *RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics, 11*(2), 301–318. https://doi.org/10.22363/2313-2299-2020-11-2-301-318

Orlova, T. G. (2021). Structural and semantic analysis of English and Russian proverbs about marriage as a source of expression of cultural and national identity. *RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics, 12*(4), 1075–1093. https://doi.org/10.22363/2313-2299-2021-12-4-1075-1093

Orlova, T. G., & Nikulina, E. F. (2016). On good and evil expression in English and Russian proverbs as a reflection of English and Russian mentality. *RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics*, (2), 101–106.

Piterova, A. Y., & Teterina, E. A. (2016). Sotsial'nye stereotipy: Osobennosti formirovaniya i izucheniya [Social stereotypes: Features of

formation and study]. *Nauka. Obshchestvo. Gosudarstvo, 4*(1). http://esj.pnzgu.ru

Soares, R. J. B. (2010). From paremiography to paremiology: The role of AIP-IAP as an international and cultural exchange facilitator. *Folklore: Electronic Journal of Folklore, 46*, 161–168. https://doi.org/10.7592/FEJF2010.46.soares

Underhill, J. W. (2009). *Humboldt, worldview and language*. Edinburgh University Press.

Villers, D., & Mieder, W. (2017). Time is money: Benjamin Franklin and the vexing problem of proverb origins. *Proverbium: Yearbook of International Proverb Scholarship, 34*, 391–404.